

KOGNITIV FAOLLIK TUSHUNCHASI VA UNING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK MAZMUNI

Doniyeva Gulnoza G‘ayrat qizi

Navoiy davlat universiteti

70110201 – Ta’lim-tarbiya nazariyasi va metodikasi (maktabgacha ta’lim)

1-kurs magistranti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada kognitiv faollik tushunchasining pedagogik va psixologik mazmuni, uning ta’lim jarayonidagi o’rni hamda maktabgacha yoshdagi bolalarda qanday shakllanishi yoritiladi. Tadqiqot davomida kognitiv jarayonlar (idrok, xotira, tafakkur), motivatsion omillar va interfaol o’qitish texnologiyalarining maktabgacha yoshdagi bolalar faolligiga ta’siri tahlil qilindi. Shuningdek, kognitiv faollik darajalarini baholash mezonlari, maktabgacha yoshdagi bolalarning mashg’ulotdagi ishtiroki va mustaqil fikrlash ko’nikmalarining rivojlanishi amaliy ma’lumotlar asosida o’rganildi. Tadqiqot natijalari ta’lim jarayonida shaxsga yo’naltirilgan yondashuv va faollashtiruvchi metodlarning qo’llanishi maktabgacha yoshdagi bolalarning intellektual faolligini sezilarli darajada oshirishini ko’rsatdi.*

Kalit so’zlar: *Kognitiv faollik, motivatsiya, idrok, tafakkur, pedagogik texnologiyalar, interfaol usullar.*

Аннотация. *В данной статье раскрывается содержание понятия когнитивной активности, его педагогический и психологический аспекты, а также роль в образовательном процессе. В ходе исследования проанализировано влияние когнитивных процессов (восприятие, память, мышление), мотивационных факторов и интерактивных педагогических технологий на активность учащихся. Определены критерии оценки уровня когнитивной активности и изучено развитие навыков самостоятельного мышления на основе практических данных. Результаты исследования показывают, что использование личностно-ориентированного подхода и активных методов обучения способствует значительному повышению интеллектуальной активности учащихся.*

Ключевые слова. *Когнитивная активность, мотивация, восприятие, мышление, педагогические технологии, интерактивные методы.*

Annotation. *This article explores the concept of cognitive activity, its pedagogical and psychological essence, and its role in the educational process. The research analyzes the impact of cognitive processes (perception, memory, thinking), motivational factors, and interactive teaching methods on learners’ engagement. Criteria for assessing cognitive*

activity levels and the development of independent thinking skills are examined using practical data. The findings indicate that applying learner-centered approaches and activating instructional methods significantly enhances students' intellectual engagement and cognitive performance.

Keywords. *Cognitive activity, motivation, perception, thinking, pedagogical technologies, interactive methods.*

Ma'lumki, Kognitiv faollik – shaxsning bilishga bo'lgan ichki ehtiyoji, mustaqil fikrlashi, yangilikni izlashga intilishi va intellektual jarayonlarda faol ishtirok etishidir. Kognitiv faollik ta'lim jarayonining markazida turadi va maktabgacha yoshdagi bolalarning mustaqil fikrlashini, bilishga bo'lgan qiziqishini, mantiqiy xulosalar chiqarish qobiliyatini shakllantiradi.

Shaxsning o'quv faoliyati davomida kognitiv jarayonlar (diqqat, xotira, idrok, tafakkur) faol ishlashi zarur. Kognitiv faolligi yuqori bo'lgan maktabgacha yoshdagi bolalar o'quv jarayonida ko'proq savollar beradi, mustaqil izlanadi, tushunmagan o'rinlarni aniqlab, ularni bartaraf etishga harakat qiladi. Zamonaviy ta'lim tizimida bunday faollikni shakllantirish tarbiyachining asosiy vazifalaridan biridir, chunki passiv bilim olish hozirgi zamon talablari uchun yetarli emas.

Kognitiv faollikni rivojlantirishda maktabgacha yoshdagi bolalarda o'z-o'zini boshqarish ko'nikmalari, refleksiya, tanqidiy fikrlash, muammoli vaziyatlarni hal qilish qobiliyati muhim o'rin tutadi.

Ta'lim jarayonida kognitiv faollikni rag'batlantirish uchun interfaol metodlar, muammoli o'qitish, loyiha ishlari, kichik guruhlarda hamkorlikda ta'lim, o'yin texnologiyalari keng qo'llaniladi.

Mamlakatimizda so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan ta'lim islohotlarida maktabgacha ta'lim tizimini takomillashtirish, bolalarning intellektual salohiyatini erta rivojlantirish davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri sifatida belgilanmoqda. Davlat tomonidan yaratilayotgan shart-sharoitlar, yangi dasturlar, raqamli resurslar, pedagoglar malakasining oshirilishi — bularning barchasi bolalarda kognitiv faollikni rivojlantirish uchun mustahkam poydevor yaratmoqda. Bu islohotlar jamiyatning har tomonlama yetuk, fikrlay oladigan, yangilikka ochiq avlodni tarbiyalashga qaratilgan siyosiy strategiya bilan uzviy bog'liq.

Kognitiv faoliyat — bu insonning bilish jarayonlaridan iborat ruhiy faoliyat bo'lib, sezgi, idrok, diqqat, xotira, fikrlash, til va qaror qabul qilish kabi jarayonlarni o'z ichiga oladi. Kognitiv psixologiyada bu tushuncha nafaqat passiv ma'lumot qabul qilishni, balki ma'lumotni qayta ishlash, saqlash va amaliyotda foydalanish jarayonlarini ham bildiradi.

Ulric Neisser kognitiv faoliyatni “ma’lumotlarni kodlash, saqlash, esga olish va ishlatish jarayoni” sifatida ko‘rib, ongni faol “ma’lumot qayta ishlovchi tizim” deb ta’riflaydi [1].

Shveytsariyalik psixolog Jean Piaget esa kognitiv rivojlanish nazariyasida bilish jarayonlarini dinamik va rivojlanuvchi deb ko‘radi. Piaget fikricha, bola atrof-muhit bilan o‘zaro aloqada bo‘lib, yangi tajribalarni mavjud bilish sxemasiga tatbiq qiladi yoki yangi sxema yaratadi. Shu tarzda bola fikrlash, idrok va tushuncha kabi kognitiv qobiliyatlarini shakllantiradi [2].

O‘zbek olimlaridan G.S.Abdiraimova kognitiv faoliyatni pedagogik-psixologik kontekstda tahlil qiladi. U ta’kidlaydiki, maktabgacha yoshdagi bolalarning kognitiv faoliyatini rivojlantirishda motivatsiya, psixologik muhit, tarbiyachining yondashuvi va metodik vositalar muhim ahamiyatga ega [3].

Kognitiv faoliyatning pedagogik mazmuni shundaki, u bolalarning mustaqil fikrlash, muammoni hal qilish, ijodiy va tadqiqotchilik salohiyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. O‘zbekistonlik tadqiqotchilar O‘. H.Bozorova va M.V.Bobomurodova kognitiv-vizual ko‘nikmalarni shakllantirishni pedagogik psixologiya nuqtai nazaridan muhim deb biladilar[4]. Chet el olimlari ham shunga o‘xshash fikrni ilgari suradi. Neisser va Piaget kognitiv faoliyatni nafaqat bilim olish, balki ularni yangi sharoitlarda qo‘llash va rivojlantirish jarayoni sifatida ko‘rsatadi. Shu bilan birga, kognitiv faoliyat o‘quv jarayonida faol, interaktiv va reflektiv bo‘lishi kerak. Bu esa pedagogik sharoitda interaktiv metodlar, mustaqil ishlash, ijodiy vazifalar va bolalarni faol jalb qilish orqali amalga oshiriladi [5]. O‘zbek olimlarining tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, pedagoglar nafaqat bilim uzatuvchi, balki maktabgacha yoshdagi bolalarda kognitiv salohiyatini shakllantiruvchi vosita sifatida faoliyat yuritishi lozim. Shu nuqtai nazarda, kognitiv faoliyat pedagogika psixologiyaning markaziy elementi bo‘lib, ta’lim jarayonining samaradorligini oshiradi. Shuningdek, maktabgacha yoshdagi bolalarda ilarda kognitiv kompetentlikni rivojlantirish motivatsion, faoliyat va shaxsiy komponentlarni uyg‘unlashtirish orqali amalga oshiriladi [6].

Ushbu tadqiqot maktabgacha yoshdagi bolalarda kognitiv faollikning pedagogik-psixologik mazmunini o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, unda nazariy manbalarni tahlil qilish, kuzatish, suhbat, pedagogik diagnostika va eksperimental mashg‘ulotlardan kompleks tarzda foydalanildi.

Tadqiqot materiali sifatida: Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida faoliyat yuritayotgan 5–6 yoshdagi tarbiyalanuvchilar va tashkilotda faoliyat yuritayotgan tarbiyachilar ularning mashg‘ulot jarayonlari, o‘yin faoliyati namunalari, bolalarning kognitiv jarayonlari (diqqat, idrok, tafakkur, xotira), pedagogik va psixologik manbalar asos qilib olindi. Shuningdek, kognitiv faollikni rivojlantirishga qaratilgan mashg‘ulotlar, tajribalar, muloqotli o‘yinlar, didaktik materiallar ham tadqiqot materiallari tarzida qo‘llanildi.

Tadqiqot quyidagi usullar asosida amalga oshirildi:

1. Nazariy tahlil

Pedagogik va psixologik adabiyotlar, ilg‘or xorijiy tajribalar, kognitiv rivojlanish nazariyalari (J.Piaje, V.Vigotskiy, Bruner, G.Azixzodjayeva va boshqalar) tahlil qilindi. Ushbu tahlil kognitiv faollikning mazmuni, tuzilishi, namoyon bo‘lish ko‘rinishlari va rivojlantirish strategiyalarini belgilashga yordam beradi

2. Kuzatish usuli

Kuzatish maktabgacha ta’lim guruhlarida bolalarning:

- savol berish chastotasi,
- izlanishga bo‘lgan qiziqishi,
- o‘yin faoliyatidagi faolligi,
- topshiriqlarni mustaqil bajarishga intilishi,
- muammoni hal qilishga bo‘lgan urinishlari kabi kognitiv faollik belgilari bo‘yicha olib borildi.

Kuzatishlar tabiiy sharoitda, real mashg‘ulot va o‘yin jarayonlarida olib borildi. Natijalar deskriptiv statistik tahlil orqali qayta ishlangan.

3. Suhbat va intervyu tarbiyachilar, metodistlar va ota-onalar bilan suhbat o‘tkazildi.

Suhbatlar orqali:

- bolalarning bilishga qiziqish xususiyatlari,
- mustaqil fikrlash jarayonlari,
- tarbiyachining motivatsion yondashuvi,

o‘yin va mashg‘ulotlarning kognitiv jarayonlarga ta’siri haqidagi ma’lumotlar yig‘ildi.

4. Pedagogik diagnostika

Bolalarning kognitiv faollik ko‘rsatkichlarini aniqlash uchun:

- diqqatning barqarorligi testlari,
- vizual-idrokiy topshiriqlar,
- mantiqiy fikrlash mashqlari,
- muammoli vaziyatlarni hal qilish topshiriqlari qo‘llanildi.

Diagnostika natijalari procent hisobida qayd etildi, natijalarni solishtirish jadval ko‘rinishida ishlab chiqildi.

5. Eksperimental mashg‘ulotlar (tajriba-sinov ishlari)

Kognitiv faollikni rivojlantirishga qaratilgan:

- muammoli o‘yinlar,
- tadqiqot topshiriqlari,
- konstruktorlik mashg‘ulotlari,

- tajribaviy mashqlar asosida maxsus mashg‘ulotlar tizimi ishlab chiqildi.

Eksperimental mashg‘ulotlar uch bosqichda o‘tkazildi:

- Diagnostika (boshlang‘ich tahlil) — bolalarning kognitiv faollik darajasi aniqlab olindi.

- Tajriba bosqichi — maxsus mashg‘ulotlar tizimi joriy etildi.
- Nazorat bosqichi — o‘zgarishlar qayd etildi, natijalar taqqoslandi.

6. Ma’lumotlarni qayta ishlash

Yig‘ilgan ma’lumotlar:

- foizli hisob-kitoblar,
- taqqoslash,
- umumlashtirish,
- dinamik o‘zgarishlarni jadval va grafiklarda aks ettirish usullari orqali qayta ishlangan.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, maktabgacha yoshdagi bolalarda kognitiv faollikning shakllanishi va rivojlanishi bir qator psixologik hamda pedagogik omillar bilan chambarchas bog‘liqdir. Olingan ma’lumotlar kognitiv jarayonlar – idrok, diqqat, xotira, tafakkur va muammoni hal qilish ko‘nikmalarining faollashuvi pedagogning to‘g‘ri tashkil etilgan metodik yondashuviga bevosita bog‘liq ekanini tasdiqladi. Kuzatuv va suhbatlar natijalariga ko‘ra, bilishga qiziqish yuqori bo‘lgan bolalarda savol berish chastotasi, mustaqil izlanish darajasi va o‘yin faoliyatidagi intellektual faollik sezilarli ravishda oshgan.

Mashg‘ulot jarayonida qo‘llangan muammoli vaziyatlar, muloqotli o‘yinlar, tajribaviy topshiriqlar va konstruktorlik mashqlari bolalarning bilishga bo‘lgan ichki ehtiyojini kuchaytirib, ularda mustaqil fikrlash jarayonini jadallashtirganini tadqiqot jarayonida muntazam ravishda kuzatish mumkin bo‘ldi. Bunda ayniqsa, tarbiyachi tomonidan yaratilgan erkin fikrlash muhiti, qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish bolalarning kognitiv faolligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etdi. Suhbatlar shuni ko‘rsatdiki, tarbiyachi tomonidan bolaga berilgan ijobiy munosabat, ishonch, savol berishga undash va izlanishga yo‘naltirilgan topshiriqlar kognitiv faollikning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

Tadqiqot davomida bolalarda bir qator o‘zgarishlar kuzatildi: tajribaning boshlang‘ich bosqichida bolalarning ko‘pchiligida diqqatning barqaror emasligi, savol berishga uyalish, mustaqil ravishda topshiriq tanlay olmaslik singari holatlar uchragan bo‘lsa, tajriba yakuniga kelib bu ko‘rsatkichlar sezilarli darajada yaxshilangan. O‘yin va tajriba topshiriqlari orqali bolalar mantiqiy fikrlash, tahlil, umumlashtirish, taqqoslash kabi kognitiv operatsiyalarni ko‘proq qo‘llay boshlaganlari aniqlandi. Bu jarayon ayniqsa muammoli o‘yinlar (masalan: sabab-oqibatni topish o‘yinlari, qurilish konstruktorlari bilan kreativ vazifalar, “nega?” va “qanday?” savollari asosida tashkil etilgan muloqotli mashqlar) orqali yanada kuchaygan.

Pedagogik diagnostika natijalari ham kuzatuvlar bilan mos tushdi. Eksperimental mashg‘ulotlar asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni bolalarning diqqatning barqarorligi, muammoni hal qilish qobiliyati, mustaqil tanlov qilish, xotira jarayonlarini faollashtirish kabi ko‘nikmalarni sezilarli darajada rivojlantirdi. Tadqiqot ishtirokchilarining kognitiv faollik bo‘yicha boshlang‘ich va yakuniy ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi farq foizli hisob-kitoblar orqali aniqlandi va natijalarda sezilarli dinamik o‘rish qayd etildi.

Tadqiqot natijalari shuni tasdiqladiki, to‘g‘ri tanlangan pedagogik yondashuv kognitiv faollikning barcha omillariga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Ayniqsa, o‘yin faoliyati bilan integratsiyalashgan interaktiv metodlar bolalarning o‘quv jarayoniga faol kirishishiga, bilishga bo‘lgan qiziqishining ortishiga, mustaqil fikrlashning shakllanishiga hamda ijtimoiy-muloqot ko‘nikmalarining rivojlanishiga xizmat qiladi. Shuningdek, tarbiyachining ijobiy hissiy qo‘llab-quvvatlashi, individual yondashuvi va samarali kommunikatsiya usullaridan foydalanishi bolalarning ruhiy qulaylik darajasini ta’minlab, ularni faol o‘rganishga undaydi.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, kognitiv faollikni rivojlantirish faqat biror mashg‘ulot turi yoki alohida metod orqali emas, balki pedagogik jarayonning butun tizimli yondashuvi orqali amalga oshadi. Tadqiqot natijalari bu jarayonda integrallik, izchillik, motivatsion muhit va pedagogik madaniyatning yuqori darajada bo‘lishi muhim ekanini ko‘rsatdi. Barcha bosqichlarda kuzatilgan o‘zgarishlar kognitiv faollikni rivojlantirish uchun yaratilgan shart-sharoitlarning samaradorligini tasdiqlaydi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, kognitiv faollik bolalarning bilishga bo‘lgan ichki ehtiyoji, mustaqil fikrlashi va o‘quv jarayonida faol ishtirok etishini ta’minlovchi muhim psixologik-pedagogik omildir. Maktabgacha ta’lim jarayonida to‘g‘ri tanlangan metodlar — muammoli vaziyatlar, o‘yin asosidagi topshiriqlar, muloqotli mashg‘ulotlar va tajribaviy faoliyat bolalarning idrok, tafakkur, diqqat va xotira jarayonlarini sezilarli darajada faollashtiradi.

Tadqiqot davomida tarbiyachining qo‘llab-quvvatlovchi munosabati, rag‘batlantirish, erkin fikrlash uchun sharoit yaratish va individual yondashuv kognitiv faollikning oshishida muhim rol o‘ynashi tasdiqlandi. Eksperimental mashg‘ulotlar natijasida bolalarning savol berish chastotasi, mustaqil izlanishi va muammoli vazifalarni hal qilish ko‘nikmalari rivojlanganini kuzatish mumkin bo‘ldi.

Umuman olganda, kognitiv faollikni rivojlantirish bolalarning intellektual salohiyatini oshiradi, o‘quv jarayoniga qiziqishini kuchaytiradi hamda keyingi ta’lim bosqichlarida muvaffaqiyatga erishishi uchun mustahkam zamin yaratadi.

Adabiyotlar

1. Neisser, U. (1967). Cognitive Psychology. New York: Appleton-Century-Crofts.
2. Piaget, J. (1952). The Psychology of the Child. New York: Basic Books.
3. Abdiraimova, G.S. (2025). Kognitiv faoliyat tushunchasining mazmun-mohiyati va uning psixologik-pedagogik asoslari. Pedagogik Mahorat, №6.
4. Bozorova, O.H. (2025). Kognitiv kompetentlik tushunchasi va uning matematika o‘qituvchilari faoliyatidagi o‘rni. Pedagogik Mahorat, №8.
5. Bomurodova, M.V. (2023). O‘qituvchilar faoliyatida kognitiv-vizual ko‘nikmalarni shakllantirishning pedagogik shartlari. Eurasian Journal of Social Sciences
6. Usmonova, G.I. (2025). Tadqiqotchilik kompetensiyalarini kognitiv faoliyat asosida shakllantirishga oid pedagogik qarashlar. Kokand State Pedagogical Institute.